



SAMARQAND VILOYATI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINING TAHLILI VA UNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Axrorova Munavvar

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
"Ipak Yo'li" turizm va ma'daniy meros xalqaro universiteti
ORCID: 0009-0000-6592-5408
maxrorova16@gmail.com

Annotatsiya. Tadqiqotning maqsadi mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyalarini amalga oshirishda dolzarb masala bo'lgan sog'liqni saqlash tizimi va tibbiy xizmatlar sohasining Samarqand viloyati misolida ko'rib chiqishdir. Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonda aholi farovonligini oshirish va iqtisodiyotni izchil rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etgan tibbiy xizmatlar sohasining tizimli tahlili va uni rivojlantirish imkoniyatlari ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: xizmatlar sohasi, tibbiy xizmat, innovatsion iqtisodiyot, raqamli xizmatlar, tibbiy xizmatlar sifati, tibbiy xizmatlarni modernizatsiyalash.

АНАЛИЗ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕЕ РАЗВИТИЯ

Ахророва Мунаввар

Самаркандский институт экономики и сервиса,
Международный университет туризма и культурного наследия «Шелковый путь»

Аннотация. Целью исследования является рассмотрение системы здравоохранения и сектора медицинских услуг, что является актуальным вопросом реализации стратегии социально-экономического развития страны, на примере Самаркандской области. В статье дается системный анализ сферы медицинских услуг, которая приобрела важное значение в повышении благосостояния населения и последовательном развитии экономики Нового Узбекистана, а также научно обосновываются возможности ее развития.

Ключевые слова: сфера услуг, медицинские услуги, инновационная экономика, цифровые услуги, качество медицинских услуг, модернизация медицинских услуг.

ANALYSIS OF THE HEALTHCARE SYSTEM OF SAMARKAND REGION AND ITS DEVELOPMENT OPPORTUNITIES

Akhrorova Munavvar

Samarkand Institute of Economics and Service,
"Silk Road" International University of Tourism and Cultural Heritage

Abstract. The purpose of the study is to consider the healthcare system and the medical services sector, which is an urgent issue in implementing the country's socio-economic development strategies, using the example of the Samarkand region. This article provides a systematic analysis of the medical services sector, which has become an important factor in improving the well-being of the population and the consistent development of the economy in New Uzbekistan, and its development opportunities.

Keywords: service sector, medical service, innovative economy, digital services, quality of medical services, modernization of medical services.

Kirish.

Iqtisodiy jihatdan inson salomatligi ishlab chiqarish samaradorligi hamda ijtimoiy munosabatlar rivojlanishining integral ko'rsatkichi sifatida qaraladi. Bugungi kunda salomatlik muammosi global darajada ahamiyat kasb etib, davlatlarning milliy xavfsizlik konsepsiyasi doirasida asosiy determinantlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, sog'liq tushunchasi faqatgina kasallik va jismoniy nuqsonlarning yo'qligi bilan chegaralanmaydi, balki u jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlikni o'z ichiga oluvchi holat sifatida izohlanadi (WHO, 2024).

O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar yuqori texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy qilish orqali sohaga kompleks modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan. So'nggi yillarda O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimini tubdan yangilash va modernizatsiya qilish bo'yicha qator dasturlar va normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, "2019–2025 yillarda O'zbekiston Respublikasining sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi"da (Farmon, 2018) belgilangan strategik yo'nalishlarga ko'ra, innovatsion texnologiyalar va ilg'or xalqaro standartlar asosida boshqaruv mexanizmlari takomillashtirilmoqda, tibbiy xizmat ko'rsatish sifati va ommaviyligi ta'minlanmoqda, va sohaga xorijiy investitsiyalar hamda xalqaro hamkorlik faol ravishda jalb qilinmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28 yanvar 2022 yildagi PF-60-sonli 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi va 28 sentabr 2023 yildagi PF-158-sonli "O'zbekiston -2030" strategiyasi to'g'risidagi (Farmon, 2023) Farmonlari asosida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyalarini amalga oshirishda tibbiy xizmatlar sohasining ahamiyati uslubiy, nazariy va amaliy asoslarini ko'rsatib berilgan bo'lib, yorqin sonlarda amaliy bajarilish mexanizmi ishlab chiqilgan.

Xizmat ko'rsatish bilan birga tibbiy xizmat tushunchasining ham iqtisodiy mohiyati qator adabiyotlarda bayon qilingan. Jumladan tibbiy xizmat bo'yicha xorijlik olimlardan Polyakovning (2002) qayd etishicha "Tibbiy xizmat bu mijozning, (bemorning, xizmatlar iste'molchisining) tibbiy yordamga bo'lgan obyektiv ehtiyojlarini qondirishga qodir va uning sog'lig'ini saqlashga (mustahkamlashga) qaratilgan tibbiy xodimlarning (ijrochi, xizmat ko'rsatuvchi provayder) zarur va yetarli, vijdonli, kasbiy harakatlari majmuidir".

Shu bilan birga respublikamiz olimlaridan professor Pardayev va professor Mirzayevlarning (2014) e'tirof etishicha "Tibbiy xizmat deyilganda mijozlarga(bemorlarga) to'lov asosida ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlarni (tashxiz qo'yish, kasalliklarni profilaktiga qilish, davolash-tiklash ishlarini) ma'lum darajada narxlangan holda va ushbu narx zahirida barcha xarajatlarni qoplab foyda olish ko'zda tutilgan, tibbiy xizmatlarga asoslangan tadbirkorlik faoliyati tushuniladi".

Rojkovning (n.d.) fikricha, sog'liqni saqlash bu: ijtimoiy-iqtisodiy va tibbiy tadbirlar majmuidan iborat bo'lib, uning magsadi har bir insonning va aholining sog'lig'ini tiklash va mustahkamlashga, ishlab chiqarishning ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan xizmatlardir. Vasilenko (2020) sog'liqni saqlash har bir insonga sog'lig'i yomonlashganda tibbiy yordam ko'rsatuvchi, uzoq umr ko'rishini jismoniy va ruhiy quvvatlovchi, o'zida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, ilmiy, tibbiy, sanitariya-epidemiologik va madaniy xarakterdagi davlatning tadbirlar majmui ekanligini ta'riflaydi.

Shu bilan birga respublikamiz olimlaridan professor Pardayev va professor Mirzayevlarning (2014) e'tirof etishicha "Tibbiy xizmat deyilganda mijozlarga(bemorlarga) to'lov asosida ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlarni (tashxiz qo'yish, kasalliklarni profilaktiga qilish, davolash-tiklash ishlarini) ma'lum darajada narxlangan holda va ushbu narx zahirida barcha xarajatlarni qoplab foyda olish ko'zda tutilgan, tibbiy xizmatlarga asoslangan tadbirkorlik faoliyati tushuniladi".

Rajabovning (2023) doktorlik dissertatsiyasida yozilishicha, sog'liqni saqlash: aholi sog'lig'ini saqlash va tiklashga, kasalliklar tarqalishining oldini olish, tibbiy vosita va preparatlar ishlab chiqish, tibbiyot xodimlari taqsimoti va ishchi kuchini kengaytirilgan takror ishlab chiqish, ijtimoiy muhitni yaxshilash va tibbiy madaniyatni targ'ib etish kabi kompleks xizmatlar majmuidan iborat.

Bundan tashqari yuqoridagi adabiyotlarda tibbiy xizmatlarning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni ham ilmiy asoslantirilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Samarqand viloyatida tibbiy xizmatlar sohasining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish orqali jamoat salomatligi tizimining umumiy darajasi baholanadi va uning samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy muammolar aniqlanadi. To'g'ri tashkil etilgan tibbiy xizmatlar tizimi aholining kasallanish va o'lim ko'rsatkichlarini kamaytirishga xizmat qiladi, bu esa umr davomiyligini oshirish hamda aholi sonining barqaror o'sishiga sabab bo'ladi. Demak, bu jarayon viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim omiliga aylanadi.

Aholi salomatligi holati va unga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish uchun tibbiy-demografik ma'lumotlarga asoslangan tahlillar olib borilishi lozim. Har qanday davlatning demografik siyosati aholi sonini barqaror oshirish, optimal yosh va ijtimoiy tuzilmani shakllantirishga qaratilgan turli ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va axborot chora-tadbirlarini o'z ichiga oladi.

Samarqand viloyatidagi demografik o'zgarishlar hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqot 2014-2024 yillar oralig'idagi asosiy demografik ko'rsatkichlarni tahlil etib, aholi dinamikasi hamda uning iqtisodiy barqarorlik va siyosiy rejalashtirishdagi ta'sirlarini o'rganishga yo'naltirilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida ushbu davr uchun statistik ma'lumotlardan foydalangan holda, aholi o'sishi, tug'ilish, o'lim va umr ko'rish davomiyligidagi o'zgarishlarni trend tahlili orqali tekshirish usuli qo'llanildi (1-jadval).

Olingan natijalarga ko'ra, Samarqand viloyati aholisi 2014-yilda 3,45 million kishidan 2024-yilga kelib 4,3 million kishigacha yetib, 10 yil davomida umumiy 24,7 foizga o'sgan. Bu barqaror o'sish, yashash sharoitlarining yaxshi ekanligi hamda iqtisodiy barqarorlik mavjudligidan dalolat beradi. Tug'ilish koeffitsiyenti ushbu davrda o'zgaruvchan bo'lib, 2014-yilda har 1000 kishiga 25,5 bo'lsa, 2017-yilda 24,6 ga tushgan, so'ngra 2021-yilda 27,4 gacha ko'tarilib, 2024-yilga kelib yana 25,8 ga pasaygan. Bu holatlar reproduktiv salomatlik siyosatidagi o'zgarishlar, iqtisodiy holat hamda madaniy omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

1-jadval


Samarqand viloyati bo'yicha 2014–2024 yillar oralig'ida demografik o'zgarishlarni aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkichlar

Yil	Aholi soni (ming kishi)	Fertillik darajasi	O'lim darajasi	Chaqaloqlar o'limi	Mehnat yoshidagi o'lim darajasi	O'rtacha umr davomiyligi (yil)
2014	3,445.6	25.5	4.5	19.1	2.3	70.49
2015	3,514.8	25.2	4.5	17.7	2.4	70.75
2016	3,583.9	24.6	4.5	16.5	2.4	71.01
2017	3,651.7	24.6	4.6	15.5	2.2	71.27
2018	3,720.1	26.6	4.4	14.6	2.1	71.53
2019	3,798.9	26.5	4.3	9.3	2.2	71.63
2020	3,877.4	26.2	4.7	7.1	2.3	71.73
2021	4,031.3	27.4	4.7	6.5	2.2	71.84
2022	4,118.2	27.1	4.7	6.5	2.2	71.94
2023	4,208.5	27.1	4.6	6.7	2.1	72.04
2024	4,297.5	25.8	4.4	8.2	2.1	72.14

Manba: stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Umumiy o'lim koeffitsiyenti har 1000 kishiga 4,3 dan 4,7 gacha o'zgarib, barqarorlik namoyon etgan bo'lsa, chaqaloqlar o'limi sezilarli darajada 2014-yildagi 19,1 dan 2022-yilda 6,5 ga kamaygan, ammo 2024-yilda 8,2 ga biroz ko'tarilgan. Bu holat sog'liqni saqlash xizmatlaridagi yutuqlarni ko'rsatish bilan birga, keyingi davrda ayrim qiyinchiliklar mavjudligini ham anglatadi. Ishchi yoshdagi aholi orasidagi o'lim koeffitsiyenti esa 2,1 va 2,4 oralig'ida deyarli o'zgarishsiz qolgan. Umr ko'rish davomiyligi 2014-yildagi 70,49 yoshdan 2024-yilda 72,14 yoshgacha oshgan, bu esa sog'liqni saqlash xizmatlari sifati, turmush darajasi va hayot tarzidagi yaxshilanishlarni ko'rsatadi. Samarqand viloyatidagi ushbu demografik o'zgarishlar aholi sonining o'sishi va umr ko'rish davomiyligining oshishi bilan umumiy ijobiy dinamikani aks ettiradi. Ayniqsa, chaqaloqlar o'limining keskin kamayishi sog'liqni saqlash tizimidagi yaxshilanishlarni namoyon etsa-da, tug'ilish koeffitsiyentidagi o'zgarishlar ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida ekanligini ko'rsatadi. So'nggi yillardagi kichik o'sishlar esa alohida e'tibor talab qiladi. Bu natijalardan kelib chiqib, sog'liqni saqlash dasturlarini yanada mustahkamlash, oilaviy rejalashtirish va iqtisodiy rag'batlantirish orqali aholi o'sishini muvozanatlashtirish hamda demografik jarayonlarga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni chuqurroq tahlil qilish bo'yicha tadqiqotlarni davom ettirish tavsiya etiladi.

Ishlab chiqarish yoshidagi o'lim darajasi Samarqand viloyatida sog'liqni saqlash sohasidagi eng jiddiy muammolardan biri – mehnatga layoqatli yoshdagi aholi o'lim darajasining yuqoriligi hisoblanadi. Erkaklar uchun 16-59 yosh oralig'ida, ayollar uchun esa 16-54 yosh oralig'ida o'lim ko'rsatkichi yuqori bo'lib qolmoqda. Tadqiqotda o'lim sabablari quyidagi olti guruhga ajratilgan holda ko'rib chiqildi: yurak-qon tomir kasalliklari, tabiiy bo'lmagan (nochor) sabablar, onkologik kasalliklar, hazm qilish tizimi kasalliklari, yuqumli kasalliklar va boshqa sabablar (1-rasm).




1-rasm. Ishlab chiqarish yoshidagilarning o'lim darajasi

Manba: stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

O'rganish natijalariga ko'ra, Samarqand viloyatida o'limning yetakchi sababi sifatida yurak-qon tomir kasalliklari aniqlandi, ularning umumiy o'limlar sonidagi ulushi 34 foizni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich gipertoniya, insult va yurak xurujlari kabi muammolarning keng tarqalganligi bilan bog'liq bo'lib, ular yuqori qon bosimi, semizlik, harakatsiz turmush tarzi va noto'g'ri ovqatlanish kabi omillar bilan izohlanadi. Ikkinchi o'rinda 26 foiz ko'rsatkich bilan tabiiy bo'lmagan o'lim sabablari, jumladan yo'l-transport hodisalari, ish joyidagi baxtsiz hodisalar va ruhiy muammolarga bog'liq o'z joniga qasd qilish holatlari qayd etildi. Mazkur holatlar yo'l harakati qoidalari, ish xavfsizligi va ruhiy salomatlik bo'yicha profilaktika chora-tadbirlarini kuchaytirishni talab etadi. Onkologik kasalliklar o'limning uchinchi asosiy sababini tashkil qilib, umumiy ko'rsatkichning 17 foiziga teng.

Demografik o'zgarishlar mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, sog'liqni saqlash samaradorligi va hayot sifati bo'yicha muhim xulosalar chiqarishga imkon beradi. Tadqiqot davomida Samarqand viloyatida 2010–2024 yillar oralig'ida aholi sonining o'sishi, tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlarini tahlil qilib, ularning hududiy rejalashtirish va siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ta'sirlarini o'rganiildi (2-rasm).



2-rasm. Samarqand viloyatida aholi o'sish dinamikasi tahlili

Manba: stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Samarqand viloyati aholisi 2010-yildagi 3,1 million kishidan 2024-yilga kelib 4,3 million kishigacha ko'payib, 14 yil ichida jami 38 foizga oshdi. Bu aholi sonining barqaror o'sishi iqtisodiy rivojlanish, yashash sharoitlarining yaxshilanishi hamda tabiiy o'sishning davom etganligidan dalolat beradi. Tug'ilish ko'rsatkichlari tahlil qilinganda, dastlab 2010-yilda 75,213 nafar tug'ilganlar soni 2011-yilda biroz kamayib (73,903), keyingi yillarda esa izchil o'sib, 2023-yilda eng yuqori ko'rsatkich – 113,986 nafar qayd etildi. Bu yuqori tug'ilish darajasi barqaror tug'ilish koeffitsiyenti, onalar va bolalar sog'lig'ini saqlash tizimidagi yaxshilanishlar hamda hukumat tomonidan aholi sonini ko'paytirish bo'yicha qo'llab-quvvatlash choralari bilan izohlanadi. Ammo 2024-yilda tug'ilish sonining biroz kamayishi (110,865) oilani rejalashtirish qarorlariga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy-iqtisodiy omillar mavjudligini ko'rsatadi. Shu davr mobaynida o'lim ko'rsatkichlari 2010-yildagi 14,262 nafardan 2023-yilga kelib 19,388 nafargacha oshib, 2024-yilda esa 18,854 nafarga biroz pasaygan. Eng yuqori o'lim ko'rsatkichlari 2021–2022-yillarda kuzatilgan bo'lib, bu COVID-19 pandemiyasi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. O'lim holatlarining umumiy oshishiga qaramay, sog'liqni saqlash va kasalliklarning oldini olish chora-tadbirlaridagi yutuqlar bu ko'rsatkichni barqarorlashtirishga yordam berdi. Tabiiy aholi o'sishi (tug'ilish va o'lim o'rtasidagi farq) esa butun tadqiqot davomida ijobiy qolgan bo'lib, eng yuqori tabiiy o'sish 2023-yilda (94,598 nafar), eng past ko'rsatkich esa 2011-yilda (59,298 nafar) qayd etildi. Ammo 2024-yilda tabiiy o'sishning kamayishi demografik o'zgarishlarda yangi tendensiyalarning paydo bo'lganini ko'rsatib, qo'shimcha tadqiqotlarni talab qiladi. Xulosa qilib aytganda, Samarqand viloyatida aholi sonining sezilarli darajada oshishi kuzatilgan, ammo so'nggi yillardagi tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar yangi demografik muammolar mavjudligini anglatadi.

Sog'liqni saqlash tizimi har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida, jumladan, Samarqand viloyatida ham tibbiyot infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha qator islohotlar amalga

oshirilmoqda. Ushbu tadqiqotda Samarqand viloyatining tibbiy xizmat ko'rsatish infratuzilmasining bugungi holati tahlil qilinadi. Samarqand viloyatida 2024-yil holatiga 41 ta shifoxona, 16 ta ko'p tarmoqli poliklinika, 70 ta oila poliklinikasi, 164 ta oila shifokorlik punkti, 680 ta xususiy klinika, 7 ta davlat-xususiy sheriklik loyihalari mavjud bo'lib, ular aholiga keng qamrovli tibbiy xizmatlar ko'rsatmoqda.

Viloyatda sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar aholini sifatli tibbiy xizmat bilan ta'minlashni maqsad qilgan bo'lib, Prezidentning tegishli qarorlari asosida tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasi yaxshilanmoqda, zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlanish darajasi oshirilmoqda. Jumladan, onkologiya, kardiologiya va transplantatsiya yo'nalishlarida zamonaviy tibbiy texnologiyalar joriy etilib, yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlari hajmi sezilarli darajada oshgan.

Oxir-oqibat, Samarqand viloyati aholisi orasida birlamchi kasallanish darajasi bo'yicha o'tkazilgan tahlil hududlar bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Bu esa epidemiologik holatning o'zgarishi va sog'liqni saqlash tizimining samaradorligi bilan bog'liq. 2016-yilda viloyat bo'yicha har 100 ming kishiga to'g'ri keladigan kasallanish soni o'rtacha 78178,4 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 68595,24 gacha pasaygan. Shu bilan birga, ayrim hududlarda kasallanish darajasi sezilarli o'sish yoki kamayish tendensiyalarini ko'rsatmoqda. Masalan, Samarqand tumanida 2016-yilda 54876,0 tani tashkil qilgan kasallanish soni 2024-yilda 48863,63 gacha pasaygan bo'lsa, Oqdaryo tumanida 2023-yilda 29866,19 bo'lgan ko'rsatkich 2024-yilda 105717,8 gacha ko'tarilgan.

Shuningdek, Qo'shrabot tumanida juda keskin o'zgarish kuzatilgan bo'lib, 2024-yilda kasallanish darajasi 362729,2 ga yetgan. Ushbu raqamlarning bu qadar o'zgarishi turli omillar, jumladan, tibbiy xizmat ko'rsatish imkoniyatlarining kengayishi, kasalliklarni aniqlash va diagnostika usullarining yaxshilanishi hamda ekologik va ijtimoiy omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ayrim hududlarda esa kasallanish darajasi nisbatan barqaror qolgan, bu esa sog'liqni saqlash tizimining samaradorligini saqlab qolish yoki muayyan hududiy omillar ta'sirida bo'lish ehtimolini ko'rsatadi.

Fikrimizcha, aholining kasallanish darajasining o'zgarishiga bir necha omillar sabab bo'lmoqda. Jumladan, aholining qarish jarayoni, diagnostika usullarining takomillashishi, kasalliklarning oldini olish va davolash tizimining yetarlicha samarali ishlamasligi va umumiy sog'liq holatining yomonlashuvi asosiy omillar sifatida ta'kidlamodamiz. Misol uchun, sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishga qaratilgan milliy dasturlar doirasida o'tkazilgan tibbiy ko'riklar natijasida ilgari aniqlanmagan kasalliklar soni ortgan. Shu bilan birga, haqiqatda tibbiy yordamga muhtoj bo'lgan kasallanish holatlari ro'yxatga olinayotgan kasallanish holatlaridan ancha yuqori bo'lishi mumkin. Ayniqsa, aholining muayyan qismi uchun tibbiy xizmatlarning, xususan, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatish imkoniyatlarining cheklanganligi ushbu tafovutning yanada ortishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, Samarqand viloyatida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida mahalliy sog'liqni saqlash tizimida ijobiy hamda salbiy tendensiyalar mavjudligi yaqqol namoyon bo'ldi. Ijobiy jihatlar qatoriga umumiy kasallanish darajasining nisbatan kamayishi, aholi o'lim ko'rsatkichlarining pasayishi va tug'ilish darajasining ortishi kiradi, bularning barchasi umumiy aholi sonining tabiiy o'sishiga olib kelmoqda. Ammo shu bilan birga, sog'liqni saqlash sohasida bir qator jiddiy muammolar ham mavjud. Xususan, yurak-qon tomir kasalliklari, onkologik kasalliklar kabi o'limga sabab bo'luvchi asosiy kasalliklarning ko'payib borishi tashvish uyg'otmoqda. Shuningdek, suyak-mushak tizimi va biriktiruvchi to'qimalarning patologiyasi bilan bog'liq kasalliklar hamda homiladorlik, tug'ish va tug'ruqdan keyingi davr bilan bog'liq asoratlarning ko'payishi natijasida aholining nogironlik darajasi ortmoqda. Bundan tashqari, bolalar orasida kasallanish, nogironlik va o'lim ko'rsatkichlarining o'sishi jiddiy xavotir uyg'otmoqda.

2-jadval

Samarqand viloyat aholisining birlamchi kasallanish soni, har 100 ming kishiga

	Hududlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1	Samarqand sh	128476,6	113253,6	127270,6	105794,2	83251,1	96927,0	117740,7	117985,9	115179,5
2	Kattaqo'rg'on sh	78466,4	67632,8	59422,7	56172,8	47491,7	41519,3	150285,6	46678,85	37902,4
3	Oqdaryo	93369,0	70399,6	57614,0	45192,6	65703,8	84648,6	66088,0	29866,19	105717,8
4	Bulung'ur	68981,4	52446,4	63050,4	52306,1	35227,7	50813,4	29055,0	62779,22	64253,74
5	Jomboy	61987,8	48434,1	58043,3	51381,1	38053,9	68237,6	50572,4	60680,36	49953,3
6	Ishtixon	54671,0	56969,7	54469,5	51464,4	45817,6	52061,5	47861,1	45997,32	31895,02
7	Kattaqo'rg'on	40183,6	39859,0	43176,1	60112,4	43805,6	49861,2	48940,9	54711,02	55676,47
8	Qo'shrabot	44193,1	13402,6	55842,0	47964,3	35815,4	39360,3	11845,6	49390,78	362729,2
9	Narpay	52266,1	54150,3	51600,0	48677,8	41395,4	52088,3	58522,0	54743,25	34490,93
10	Payariq	82297,2	53411,0	79554,7	36737,8	38467,8	48133,5	51214,7	46964,53	31427,25
11	Pastdarg'om	34328,7	35956,9	39335,9	54261,8	43722,9	53524,4	33981,7	50922,21	21431,76
12	Paxtachi	66592,4	54691,6	58251,1	59712,2	45166,8	52601,0	40966,0	5944,642	124623,5
13	Samarqand	54876,0	57179,7	54666,2	54431,5	41614,8	51605,2	48753,7	51767,45	48863,63
14	Nurobod	40741,6	55950,0	47462,8	48812,0	36499,5	56453,4	35205,7	38109,9	123539,6
15	Urgut	139901,9	119428,1	106823,4	84584,3	78855,2	84993,8	81751,9	67811,66	16543,76
16	Tayloq	56924,5	71882,1	56908,8	26811,6	36697,1	51913,9	41801,8	45271,93	63352,77
	Viloyat bo'yicha jami	78178,4	69152,2	71759,7	59902,3	52804,7	63873,2	61763,5	59825,8	68595,24

Manba: stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Samarqand viloyati sog'liqni saqlash tizimini har tomonlama baholash maqsadida tizimga ta'sir etuvchi makro-omillarni o'rganish uchun **PEST tahlil** o'tkazildi.

3-jadval

Samarqand viloyat sog'liqni saqlash tizimining PEST tahlili

Omil	Ta'sir	Omil	Ta'sir
Siyosiy omillar (Political):		Iqtisodiy omillar (Economic):	
Hukumat tomonidan sog'liqni saqlashni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan farmon va qarorlar viloyat tizimiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Davlat siyosiy irodasi tufayli soha ustuvor yo'nalish deb e'lon qilingan va zarur islohotlar amalga oshirilmoqda.	5	Moliyalashtirish tizimining murakkabligi: Sog'liqni saqlash iqtisodiyoti hali ham murakkab bo'lib, ko'p qavatli byudjet tizimi va bir nechta manbalarni o'z ichiga oladi. Davlat byudjeti ulushi yuqori bo'lib qolmoqda, bu esa iqtisodiy yukning asosan davlat zimmasida ekanini ko'rsatadi.	4
Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish strategiyalari yuqori siyosiy darajada qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu xususiy sektorning huquqiy va iqtisodiy muhitini yaxshilash, sheriklik loyihalarini tasdiqlash va himoya qilish kabi choralarni o'z ichiga oladi.	4	Xususiy sektor ulushining ortishi: Bozor iqtisodiyoti sharoitida xususiy tibbiyotning ulushi asta-sekin oshmoqda. Xususiy klinikalar va dorixonalarining ko'payishi sog'liqni saqlashga ajratiladigan umumiy xarajatlar tuzilmasini o'zgartirishi, ya'ni aholining cho'ntak xarajatlari va sug'urta tizimi ahamiyatini oshirishi mumkin.	4
Ijtimoiy omillar (Social):		Texnologik omillar (Technological)	
Demografik o'sish: Aholi sonining o'sishi va urbanizatsiya natijasida tibbiy xizmatlarga bo'lgan talab doimiy ravishda oshib bormoqda. Bu yangi poliklinikalar va shifoxonalar ochishni, mavjudlarini kengaytirishni talab qiladi.	5	Innovatsion tibbiy texnologiyalar: Mamlakat bo'ylab, shu jumladan Samarqand viloyatida ham, innovatsion tibbiy texnologiyalarni joriy etish rejaları ishlab chiqilgan. Yangi davolash usullari, yuqori texnologiyali jarrohlik amaliyotlari va diagnostikaning ilg'or usullari bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etilmoqda.	5
Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish: Oxirgi yillarda davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish kuchaygan. Ijtimoiy dasturlar doirasida profilaktika chora-tadbirlari, emlash kampaniyalari va jismoniy faollikni oshirishga qaratilgan tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Bu omil uzoq muddatda aholining sog'lomligiga ijobiy ta'sir qilib, sog'liqni saqlash tizimiga tushadigan yukni kamaytirishi kutilmoqda.	4	Elektron sog'liqni saqlash tizimi rivojlanishi: Axborot texnologiyalarini tibbiyotga integratsiya qilish jarayonlari davom etmoqda. Elektron tibbiy kartalar, masofaviy konsultatsiyalar (telemeditsina) va sog'liqni saqlashning boshqa raqamli yechimlari keng joriy etilmoqda. Bu texnologiyalar tibbiy yordam ko'rsatish sifatini oshirish, ma'lumot almashinuvi va tahlilini tezlashtirish imkonini beradi.	5

Manba: tahlillar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

PEST tahlili asosida Samarqand viloyatida sog'liqni saqlash sohasiga ta'sir qiluvchi omillarni 1 (minimal ta'sir) dan 5 (maksimal ta'sir) gacha baholandi. Hukumat tomonidan sog'liqni saqlashni rivojlantirish bo'yicha farmon va qarorlarning qabul qilinishi va sohaning ustuvor yo'nalish deb e'lon qilinishi viloyat sog'liqni saqlash tizimiga yuqori darajada ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. **(Ta'sir: 5)** Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) strategiyalarining yuqori darajada qo'llab-quvvatlanishi sog'liqni saqlash sektorining rivojlanishiga sezilarli turtki bo'lmoqda. Sektorning huquqiy va iqtisodiy muhitini yaxshilash, DXSh loyihalarini qo'llab-quvvatlash soha uchun muhim omil hisoblanadi **(Ta'sir: 4)**. Sog'liqni saqlash moliyalashtirish tizimining murakkabligi hamda davlat byudjeti ulushining yuqoriligi iqtisodiy yukni asosan davlat zimmasida saqlamoqda, bu esa moliyalashtirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda **(Ta'sir: 4)**. Xususiy sektor ulushining ortishi va xususiy klinikalarning ko'payishi sog'liqni saqlash xarajatlarining tuzilishini o'zgartirib, aholining cho'ntak xarajatlari va sug'urta tizimiga ehtiyojini oshirishda ahamiyatli omil bo'lmoqda **(Ta'sir: 4)**. Demografik o'sish va urbanizatsiya natijasida tibbiy xizmatlarga talabning doimiy oshishi, yangi tibbiyot muassasalarining ochilishi va mavjudlarining kengaytirish zaruratini tug'dirmoqda **(Ta'sir: 5)**. Aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishning kuchayishi va profilaktika chora-tadbirlarining amalga oshirilishi uzoq muddatda sog'liqni saqlash tizimiga tushadigan yukni kamaytirishi kutilmoqda **(Ta'sir: 4)**. Innovatsion tibbiy texnologiyalar, yuqori texnologiyali jarrohlik va diagnostika usullarining viloyat bo'ylab tatbiq etilishi davolash sifatini sezilarli darajada oshirmoqda **(Ta'sir: 5)**. Elektron sog'liqni saqlash tizimining kengayishi, elektron tibbiy kartalar va telemeditsina kabi raqamli yechimlarning keng joriy qilinishi ma'lumot almashinuvi va tahlilini tezlashtirib, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilamoqda **(Ta'sir: 5)**.

Tahlil jarayonida **PEST tahlillar** yordamida tizimning hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari o'rganilib, eng ustuvor tavsiyalarni quyidagicha jamlash mumkin:

- **Moliyaviy islohotlar va investitsiyalar:** Sog'liqni saqlashni moliyalashtirish tizimini isloh qilish, jumladan majburiy tibbiy sug'urtani joriy etish, tarmoqqa xususiy investitsiyalarni faol jalb qilish va DXSh loyihalarini kengaytirish. Bu tizimning moliyaviy barqarorligini ta'minlab, xizmatlar doirasi va sifatini oshirishga xizmat qiladi.

- **Inson resurslari salohiyatini oshirish:** Tibbiyot kadrlarini tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, mutaxassislarni hududda ushlab qolish va chekka joylarga jalb etish choralari. Yuqori malakali kadrlar barqaror jamlanmasisiz hech bir islohot samaraga erishmaydi.

- **Infratuzilma va texnologiyalarni rivojlantirish:** Mavjud shifoxona va poliklinikalarni modernizatsiya qilish, yangi tibbiy markazlar ochish, tibbiy asbob-uskunalarni yangilash. Shuningdek, sog'liqni saqlashga axborot texnologiyalari va innovatsion yechimlarni (elektron sog'liqni saqlash, telemeditsina, sun'iy intellekt) keng tatbiq etish. Bu nafaqat xizmat ko'rsatish sifati va tezkorligini oshiradi, balki uzoq muddatda tizim samaradorligini yuksaltiradi.

- **Profilaktika va sog'lom turmush:** Kasalliklarning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni kuchaytirish, aholining sog'lom turmush tarziga rioya etishini rag'batlantirish. Profilaktikaga sarmoya kiritish uzoq muddatda katta iqtisodiy va ijtimoiy samara berishi, ortiqcha xarajatlarning oldini olishi tahlillar bilan tasdiqlangan.

Xulosa va takliflar.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Samarqand viloyati sog'liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirish uchun kompleks yondashuv va uzluksiz islohotlar zarur. Yuqoridagi tavsiyalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish viloyat sog'liqni saqlash tizimini yangi bosqichga olib chiqishi kutilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, aholi salomatligini mustahkamlash, umr ko'rish davomiyligini uzaytirish hamda ijtimoiy farovonlikni oshirish kabi yuksak maqsadlarga xizmat qiladi. Viloyat tajribasi kelgusida mamlakatning boshqa hududlari uchun ham namuna bo'lib, sog'liqni saqlash sohasida barqaror rivojlanishga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar /Jumepamypa/References:

Farmon (2018) PF-5590-сон 07.12.2018. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida.

Farmon (2023) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-son Farmoniga ko'ra tasdiqlangan "O'ZBEKISTON — 2030" strategiyasi.

Mirzayev Q.J., Pardayev M.Q. (2014) "Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti". O'quv qo'llanma. T.: "IQTISOD-MOLIYA".

Polyakov I.V. va boshqalar. (1996) Tibbiy sug'urta sharoitida tibbiy xizmatlar marketing. Saratov.

Polyakova I.V. (2002) I. V. Polyakova's research works / Institute of Macromolecular Compounds, Russian Academy of Sciences and other places.

Rajabov O'.D. (2023) "Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tibbiy xizmatlar bozorini takomillashtirish yo'nalishlari" mavzusidagi dissertatsiya aftoreferati.

Vasilenko N.V. (2020) "Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti". Darslik. Moskva.

World Health Organization. (2024). WHO develops guidance to improve telemedicine services. Retrieved from <https://who.int/news/improve-telemedicine-services>.